

JINOYAT HUQUQIDA TEXNOLOGIYALAR: SUD VA TERGOV JARAYONIDA FOYDALANILISHI

Abduxakimova Xonzodaxon Doniyor qizi

xonzodaabduxakimova@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs B patok 1-guruh talabasi

Annotatsiya.

Mazkur maqolada jinoyat huquqida zamonaviy texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt (AI) tizimlarining sud va tergov jarayonlarida qo'llanilish holati tahlil qilinadi. Tadqiqotda huquqiy tahlil va taqqoslash usullaridan foydalanilgan bo'lib, O'zbekiston amaliyoti Yevropa Ittifoqi va Singapur tajribalari bilan solishtiriladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda **“Raqamli O'zbekiston – 2030”** dasturi asosida sud va tergov faoliyatida texnologiyalar joriy etilayotgan bo'lsa-da, ularni tartibga soluvchi maxsus qonun mavjud emas. Xalqaro amaliyotda esa, masalan, Yevropa Ittifoqining **“AI Act”** (2024) hujjati va Singapurning **“AI Governance Framework”** modeli orqali adliya tizimida texnologiyalar etik va huquqiy me'yorlar bilan cheklangan. O'zbekistonda ham jinoyat huquqida texnologiyalardan foydalanishni tartibga soluvchi qonun hujjatlari va amaliy tavsiyaga ega bo'lgan hujjatlar ishlab chiqilishi zarur ekanligi aniq mulohazalar bilan ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: jinoyat huquqi, texnologiyalar, sud, tergov, sun'iy intellekt, xalqaro tajriba, qonunchilik, yurisdiksiya.

Kirish.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan raqamli dunyoda texnologiyalar jamiyatning har bir sohasiga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Sud va tergov jarayonlarining ham asta-sekin zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi

kuzatilmoqda. **Texnologiyalarning jinoyat huquqida qo'llanilishi** — bu tergov va sud jarayonlarida zamonaviy raqamli vositalar (masalan, kompyuter, sun'iy intellekt, videokuzatuv, DNA tahlili, e-sud tizimi) yordamida jinoyatlarni aniqlash, dalillarni to'plash, tahlil qilish va adolatli qaror qabul qilish jarayonidir. Ushbu yangi va zamonaviy usul orqali sud va tergov jarayonlarida tezkorlik, aniqlik va yanada shaffoflikka erishish nazrada tutilib, dunyo bo'ylab sud-huquq tizimiga keng miqyosda amalga kiritilmoqda. Texnologiyalarning tez suratlarda rivojlanishi esa buni yanada isloh qilish zarurligini talab qiladi.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi huquq tizimiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda va bu bugungi kunda jinoyatlarni tezkor tergov qilish, dalillarni to'plash va amaliyotda qo'llanilayotgan boshqa samarali usullar orqali o'z isbotini topmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt (AI) inson xatolarini kamaytirish, byurokratiyaning oldini olish, ish yuritish tezligini oshirish va adolatni ta'minlashda katta imkoniyatlar yaratib bermoqda. Bunga erishish uchun turli xil usullar qo'llaniladi, jumladan, yuzni aniqlash tizimlari va avtomobil raqamlarini aniqlash kameralari kabi kuzatuv texnologiyalaridagi yutuqlar huquqni muhofaza qilish organlarining imkoniyatlarini oshirmoqda. Ushbu vositalar gumondorlarni aniqlash va jinoiy faoliyatni kuzatishda muhim rol o'ynamoqda.

Shu bilan birga texnologiyalarning jinoyat huquqida qo'llanilishi bir qancha muammoli vaziyatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Jumladan, shaxsiy ma'lumotlar xafvsizligi, texnik xatoliklar tufayli adolat tamoyillarining buzilishi va oqibatlar uchun javobgarlik masalasi kimning zimmasiga yuklatilishi kerakligi kabi masalalar shular jumlasidandir. Dunyo huquq tizimi bo'ylab raqamli texnologiyalarni sud va tergov jarayonida qo'llash amaliyoti amalga oshirilayotgan bo'lishiga qaramay, hali-hanuz xalqaro yoxud yakka tartibda ushbu sohani qat'iy tartibga solib turuvchi qonun ishlab chiqilgani yo'q. Oqibatda yurisdiksiya masalasi muammoga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi asosida sud va tergov faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish joriy

etilayotganligiga qaramay, maxsus qonun hujjatlari hozir ishlab chiqilmagan. Shu sabali ham xalqaro tajribani, xususan, Yevropa Ittifoqining “AI Act” (2024) va Singapur “AI Governance Framework” modelini o’rganish va tahlil qilish orqali milliy qonunchilikni takomillashtirish zarur hisoblanadi.

Mazkur maqoladan maqsad jinoyat huquqiga raqamli texnologiyalarning kirib kelishi, ularning sud va tergov huquqida yaratadigan imkoniyat va sabab bo’ladigan kamchiliklarni tahlil qilish, bu sohani huquqiy jihatdan tartibga solish yuzasidan kelib chiqayotgan muammolarni hal qilish uchun ko’pgina davlatlar amaliyotini o’rgangan holda amaliy yechimlar berishga qaratilgan.

Usullar.

Jinoyat huquqida, aynan sud va tergov jarayonida texnologiyalar qo’llanilishi, ularning bugungi kundagi dolzarb ahamiyati, qo’llanilish sohalari, ustunlik va kamchiliklari bir qancha usullar orqali tahlil qilindi.

Avvalo, texnologiyalar va huquq sohasining integratsiyasi turli davlatlar qonunchiligini sharhlash va taqqoslash orqali o’rganildi. **Xususan, bunda:**

- O’zbekiston Respublikasining “O’zbekiston-2030” strategiyasi;
- O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-sonli “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni
- Yevropa Ittifoqi AI akti (2024)
- “Sun’iy intellektni boshqarishning namunaviy modeli” (Singapur, 2019) kabi milliy va xalqaro hujjatlar tahlilidan foydalanildi.

Shuningdek, sud va tergov jarayonlarida texnologiyalardan keng miqyosda foydalanayotgan davlatlar tajribasi, yutuq va kamchiliklari o’rganildi. Bunda asosan Amerika Qo’shma shtatlari, Singapur, Buyuk Britaniya va Xitoy kabi davlatlar amaliyoti chuqur tahlil qilindi. Sud va tergov jarayonida samarali qo’llanilayotgan DNA, AFIS, E-court, raqamli kriminalistika, foto va video orqali

raqamli qayd etish kabi usullar batafsil tahlil qilinib, statistik ma'lumotlar bilan tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, Singapur qonunlaridan, Yevropa Ittifoqi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining hisobotlaridan ma'lumotlar olindi. Asosan, **Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OCED) Sun'iy Intellect bo'yicha tamoyillari:**

1. Inson farovonligi va xizmatlari uchun xizmat qilishi zarur;
2. Adolat va shaffoflik ta'minlanishi kerak;
3. Javobgarlik masalasi aniq belgilab qo'yilishi lozim;
4. Xavfsizlik muammolarining hal etilishi;
5. Barqaror rivojlanish va dunyo bo'ylab bu sohada hamkorlik kabilar e'tiborga olindi.¹

Eng so'nggida sud jarayonlarini raqamlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan turli xil saytlar, jumladan, <https://sud.uz/>, <https://yurxizmat.uz/>, <https://www.judiciary.gov.sg/>, <https://www.supremecourt.gov> kabilarning bu sohadagi imkoniyatlari muhokama qilindi. Ushbu maqolada 2019-2025-yillardagi so'nggi statistik ma'lumotlar va hisobotlardan ma'lumotlar keltirib o'tildi. Chunki bu yillarda texnologiyalar jinoyat huquqiga faol tarzda kirib keldi.

Natijalar.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, so'nggi yillarda sud va tergov jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish sezilarli darajada oshgan. "Journal of Medical Society" ma'lumotlariga ko'ra, birgina sun'iy intellekt algoritmlari inson tahlillari aniqlay olmaydigan yoki anglay olmaydigan qonuniyatlar va anomalialarni aniqlashga qodir bo'lib, bu sun'iy intellektni raqamli sud-ekspertiza tekshiruvlarida kuchli vositaga aylantiradi. Saudiya Arabistonida qirollik sun'iy intellekt bo'yicha hukumat strategiyasi indeksida dunyoda birinchi o'rinni egalladi. Bu ko'rsatkich Saudiya Arabistonining sun'iy intellektni sud tizimida ham faol joriy etayotganini ko'rsatadi. AQShning ba'zi shtatlarida sud tizimida sun'iy intellekt

¹ <https://www.oecd.org/en.html>

foydalanish tajribalari mavjud. Masalan, sud jarayonlarida takroriy vazifalarni avtomatlashtirish va sud qarorlarini tahlil qilishda sun'iy intellektdan foydalanish orqali samaradorlikni oshirishga harakat qilinmoqda. Xitoyda ham sun'iy intellekt texnologiyalari sud tizimida keng qo'llanilmoqda. Masalan, sud jarayonlarida hujjatlarni tahlil qilish, dalillarni baholash va hatto ba'zi hollarda hukm chiqarishda sun'iy intellektdan foydalanish tajribalari mavjud.²

Shu o'rinda mamlakatimizda ham 2023–2026-yillarga mo'ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish strategiyasida sudlar faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish belgilangan. Bunda sudyalarning ish yukini kamaytirish, ishlarni hal qilish vaqtini qisqartirish va sud qarorlarining sifatini oshirish asosiy maqsad qilib olingan.³

Sud-ekspertiza va tergov sohasida dalillarni tezroq va yuqori aniqlikda to'plash uchun bir qancha usullardan foydalaniladi. **Birinchidan**, tergov olib boruvchilar jinoyat sodir etilgan joydan olingan biologik izlardan DNK profillarini aniqlaydi va natijalarni tegishli bazadagi shaxslar ma'lumotlari bilan solishtiradi. Buyuk Britaniyada 2023/24-yillarda jinoyat joyidan olingan DNK profili Milliy DNK ma'lumotlar bazasiga (NDNAD) yuklangach, umumiy moslik darajasi 64,8 %ni tashkil etgan.⁴ Shuningdek, Buyuk Britaniyaning Milliy DNK ma'lumotlar bazasidan olingan yillik hisobotlarga ko'ra, 2023- yilning aprel oyidan 2024-yilning mart oyigacha bo'lgan davrda 7 226 795 ta shaxsiy DNK profili yozuvi va 688 054 ta jinoyat joyidan bevosita olingan DNK profili yozuvlari saqlanmoqda. Jinoyat joyidan olingan profillarni bir-biri bilan solishtirganda 2,9 % moslik qayd etilgan. Buyuk Britaniyada 14 ta laboratoriya Milliy DNK ma'lumotlar bazasiga DNK profillarni yuklash uchun ruxsat olgan va natijada ushbu davr mobaynida 28 ta bedarak yo'qolgan shaxslar DNK orqali aniqlangan.⁵

² Open forum. Using artificial intelligence to prevent crime: implications for due process and criminal justice. UK. "AI & Society". 2023.

³ Qodiraliyeva S.B. Sud-ekspertiza sohasida sun'iy intellektning rivojlanishi. <https://sudex.uz/>

⁴ Forensic Information Database annual report 2023-2024. UK. Cambridge university press. 2021.

⁵ <https://www.gov.uk/government/statistics/national-dna-database-statistics>

Ikkinchidan, Jinoyat huquqi sohasida keng qo'llaniladigan usullardan yana biri **AFIS** (Automated Fingerprint Identification System) tizimi bo'lib, AQSH Federal tergov byurosi butun dunyoga eng ko'p hajmdagi barmoq izlariga ega va bu yerda 70 milliondan ortiq jinoyatchilarning barmoq izlari saqlanadi. Ushbu soha Buyuk Britaniyada ham rivojlangan bo'lib, UK Home Office ma'lumotlariga asosan, AFIS orqali jinoyatlarning 15-25% tezroq ochilishiga erishilgan va har yili o'rtacha 60-70 mingta moslik aniqlanadi.⁶

O'zbekiston Respublikasida ham jinoyat huquqida texnologiyalar qo'llanilishi tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Xususan, butun dunyo bo'ylab sud va tergov jarayonini raqamlashtirish siyosati respublikamiz sud-tergov jarayonida ham qo'llanilmoqda. 2017-yildan **E-SUD** axborot tizimi qo'llanilmoqda. Natijada, fuqarolarning sudga murojaat qilishi jarayonidagi ortiqcha qog'ozbozchilikka chek qo'yildi va sud qarorlarining shaffoflik darajasi oshdi. Shu bilan birga, jinoyat huquqi sohasida texnologiyalar qo'llanilishini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston-2030" strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-sonli "Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni asosiy huquqiy hujjatlar sifatida qabul qilingan. Shunga asosan, sudlov hamda tergov organlari faoliyatida ayrim protsessual harakatlarni masofadan turib amalga oshirish imkoniyatlarini kamida 2 barobarga oshirish; ma'muriy huquqbuzarliklarga oid ishlarni ko'rib chiqish natijalari ustidan sudlarga yuborilayotgan shikoyatlarning 50 foizini elektron shaklda kelib tushishiga erishish; **Yagona elektron reyestr** yaratish orqali jinoyat ishini qo'zg'atishdan tortib ish yuzasidan hukm chiqarilguniga qadar bo'lgan jarayonni individual raqam va QR kodi orqali kuzatib borish imkoniyatini joriy etish; dalillarni to'plash va mustahkamlash faoliyatini zamonaviy texnologiyalar va

⁶ <https://www.justice.gov/doj/federal-bureau-investigation>

soʻnggi ilmiy yutuqlarni joriy qilish orqali toʻliq raqamlashtirish; 100 foiz jinoyat ishlari va materiallarning elektron shakldagi nusxasini yuritish va ushbu ishlar boʻyicha elektron hujjat almashinuvini taʼminlash kabi bir qancha masalalar 2030-yilga qadar amalga oshirilishi belgilangan.⁷ Shu bilan bir qatorda, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentning 21 avgustdagi PF-140-son Farmoni bilan «Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek sud ishlarini koʻrishni soddalashtirish maqsadida» tajriba tariqasida **«Raqamli sud» konsepsiyasi** joriy etilmoqda. Tajriba natijalari boʻyicha uning keyinchalik 2026–2027 yillarda hamma joyda joriy etilishi taxmin qilinmoqda. Ushbu tajribaga koʻra, barcha murojaatlar sudga elektron shaklda yuboriladi; jarayon ishtirokchilari sud binolariga tashrif buyurmaydi va sud muhokamasida masofadan turib ishtirok etadi; sudga ariza berishdan oldin sunʼiy intellekt yordamida sud muhokamasining taxminiy natijasi va xarajatlarning taxminiy kalkulyatsiyasi shakllantirilishi nazarda tutiladi.⁸

Muhokama.

Texnologiyalarning sud va tergov jarayoniga shiddat bilan kelishi garchi bu sohalarni zamonaviy jihatdan rivojlanishiga ijobiy hissa qoʻshgan boʻlishiga qaramay, texnologiyalar qoʻllanilishi oqibatida yuzaga kelayotgan bir qancha muammolar ham mavjud. **Avvalo**, ushbu jarayonlarda qoʻllanilayotgan va sunʼiy intellekt asosida ishlaydigan DNK tiziming afzallik va kamchilik taraflarini tahlil qilamiz. **Birinchidan**, Amerika Qoʻshma Shtatlarining sud departamenti rasmiy saytida keltirilgan maʼlumotlarga qaraganda, DNK dan jinoyatlarni tergov qilish jarayonida foydalanish orqali yuqori darajadagi aniqlikka erishish mumkin. 2002-yilda Filadelfiya, Pensilvaniya, Koloradoda seriyali jinoyat sodir etgan shaxs aynan

⁷ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Oʻzbekiston-2030" strategiyasi toʻgʻrisidagi Farmoni. Oʻzbekiston Respublikasi qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi (<https://lex.uz/uz/>). 2023.

⁸ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Sudlar faoliyatiga sunʼiy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik taʼminotini yaxshilashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida Farmoni. Oʻzbekiston Respublikasi qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi (<https://lex.uz/uz/>). 2023.

ushbu DNK orqali aniqlanganligi yuqoridagi fikr isboti bo'lib xizmat qiladi.⁹ DNK usuli orqali jinoyat sodir etishda shubhalanilayotgan shaxsning qoni, sochi tekshiriladi va moslik darajasi belgilanadi. Bu tizimning an'anaviy qo'llanilishi juda ko'p vaqt oladi, ammo uning Sun'iy Intellekt bilan birlashishi natijasida dallilarning tahlil qilinishi jinoyat ishlarini tezroq aniqlashtirib jinoyatchilarni qo'lga olish imkoniyatini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, jinoyat joyidan olingan biologik tahlil namunalari bir necha kishiga tegishli bo'lishi ham mumkin va bunday vaziyatlarda jarayon yanada uzoq vaqt talab qiladi, ammo raqamli DNK tizimidan foydalanish orqali bu muammo bartaraf etiladi. Shunga qaramay ushbu jarayonda tizim texnik nosozlik tufayli ma'lumotlar noto'g'ri tahlil qilishi mumkin, oqibatda aybsiz bo'lishiga qaramay shaxs jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilishi mumkin.

Jinoyat va tergov sohasiga texnologiyalarning ta'siri va kirib kelishi umumiy jarayonni raqamlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan elektron tizimlar bilan ko'roq tavsiflanadi. Hozirga kelib har bir mamlakatda ishlarni tekshirishdan tortib yakuniy qarorlar qabul qilinishi ham texnologiyalar orqali amalga oshirilayotganini guvohi bo'lib kelmoqdamiz. Xususan, sudga ariza berish, javob berish jarayonlari allaqachon elektron shaklda amalga oshirilmoqda. Masalan, AQSHda <https://www.supremecourt.gov> kabilarning elektron sayti orqali fuqarolar sudga ariza bera oladi, yoxud Singapurda <https://www.judiciary.gov.sg/> tizimi aholiga sud bilan bog'liq muammolarini onlayn tarzda hal qilish imkoniyatini bermiqda. Natijada, ortiqcha qog'ozbozlik kamayib, vaqt tejallishiga erishilmoqda. Ammo bu hukumat saytlari kiberxavfsizlik masalalari jihatidan yaxshi himoyalangan bo'lishi lozim, aks holda ular kiber hujumga uchrashi bilan birga, bazadagi ma'lumotlar sizib chiqishi holati kuzatilishi mumkin. Bu insonlarning shaxsiy huquq va erkinliklariga ziyon yetkazadi. O'zbekistonda ham <https://sud.uz/> kabi tizimlar mavjud bo'lib, sud jarayonida texnologiyalar qo'llanilishining amaliy misoli bo'lib xizmat qilmoqda.

⁹ <https://www.supremecourt.gov/>

Statistikalariga qaraganada, 63% murojaatlar onlayn tarzda kelib tushmoqda va 6126 ta sud majlisi audio tarzda qayd etilgan. Bu holat sud hokimiyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlagan holda fuqarolarga sud qarorlari, sud majlislari jadvallari haqida ochiq ma'lumot olish imkoniyatini oshiradi.¹⁰ Shuningdek, bu orqali ba'zi holatlarda videokonferensiya shaklida sud jarayonlari o'tkazilishi mumkin, bu masofadan turib ishtirok etishga yordam beradi. Biroq elektron tizimning internetga bog'liqligi va u faqat internet mavjud bo'lgan joylarda ishlashi bu tizimdan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda.

Sud va tergov jarayonida texnologiyalar haqida so'z borar ekan, albatta, bunda sun'iy intellekt asosiy mavzu sifatida muhokama maydoniga chiqadi. Bugungi kunda dunyo bo'ylab sun'iy intellektning sud jarayonida va tergovda katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, qarorlar qabul qilishda qo'llanilayotganligidan xabardormiz. Bunda jarayon quyidagicha bo'ladi: sun'iy intellekt jinoyat tarixlari, ijtimoiy tarmoqlar va telefon qo'ng'iroqlari kabi turli manbalardan katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'adi. O'rganish algoritmlari bu ma'lumotlar ichidagi bog'liqliklarni aniqlab, tergovchilarga gumonlanuvchilarni aniqlashda va jinoyat qanday sodir etilganligini tushunishga ko'maklashadi. **NPL (Natural Language Processing- tabiiy tilni qayta ishlash)** texnikalari guvohlarning so'zlari, matnli xabarlar va ijtimoiy tarmoqdagi postlarini tahlil qilishda ishlatiladi, shubha uyg'otuvchi so'zlarni aniqlashga yordam beradi. Sun'iy intellekt ruhiy holatni tahlil qilish orqali potensial jinoyat sabablarini aniqlashda ham foydalidir. Shu bilan birga, AI huquqiy ma'lumotlarni tahlil qilishda quyidagichga yordam beradi: AI tizimlari huquqiy hujjatlarni, masalan, shartnoma va guvohliklarni tahlil qilib, muhim ma'lumotlarni ajratib olish va ularning ichidan jinoyatni kvalifikatsiya qilishda qo'llaniladigan belgilarni izlash imkonini beradi.¹¹ Chuqur o'rganish texnikalari

¹⁰ <https://sud.uz/>

¹¹ American Bar Association (ABA). AI. Law transforms legal drafting with speed, accuracy and efficiency. USA. 2025.

tasvirlar va videolarni tahlil qilishda yuzni aniqlash yoxud video tasvirlarni tahlil qilish orqali vizual dalillarni baholashda yordamlashadi. Bugungi kunda AI bir qancha mamlakatlarda sud hujjatlarini avtomatik tayyorlash va sudyalarga qaror qabul qilishda tavsiyalar berish maqsadida sud yordamchisi rolini bajarmoqda. Masalan, Xitoyda **“Smart Court System”** tizimi joriy etilgan. Unga ko'ra, 2020-yildan boshlab Hangzhou Internet sudida ayrim fuqarolik ishlarida AI yordamida avtomatik hukm loyihalari ishlab chiqildi. Estoniyada ham bu borada bir qancha amaliy holatlar mavjud, ya'ni 2019-yildan Estoniya sud tizimida **“AI robot sudya”** loyihasi sinov tariqasida ishga tushirildi. Bu tizim kichik ko'lamdagi fuqarolik masalalarini ko'rib chiqib qaror qabul qiladi, agar taraflar norozi bo'lsa bevosita sudyaning o'ziga murojaat qilish imkoniyatini saqlab qoladi. Buyuk Britaniyada ham AI sud qarorlarini prognoz qilishda qo'llaniladi. Masalan, **“CaseCruncher Alpha”** nomli AI 2017-yilda advokatlar bilan raqobatlashib, sud qarorini to'g'ri taxmin qilishda 86% aniqlikka erishgan bo'lsa, advokatlarda bu ko'rsatkich 62% ni tashlik qilgan. Yuqoridagi barcha holatlar sun'iy intellektning sud va tergov sohasidagi afzaliklari hisoblanadi, lekin uning bir qancha salbiy taraflari bor ekanligini ham inkor eta olamaymiz. Jumladan, AI modellaridan etik qoidalarga rioya etmasdan turib foydalanish bir qancha muammolarga sabab bo'ladi. Bu esa fuqaro huquqlarining buzilishiga va sudyalari, tergov va prokuratura organlarining aholi orasidagi mavqeyiga zarar yetkazadi. Hali-hanuz AI to'liq ravishda hukm chiqarish uchun foydalanilmaydi. Sababi esa quyidagicha: **birinchidan**, AI hukm chiqarishi oqibatida muammolar yuzaga kelsa, bu borada kim javobgar bo'lishi belgilanmagan. **Ikkinchidan**, AI kechirim, tavba va ijtimoiy holatni his qila olish qobiliyatiga ega emas va bu holat jinoyat huquqining eng asosiy jihati bo'mish insonparvarlik tamoyilining qo'llanilishiga cheklov qo'yadi.

Texnologiyalar har qanday sohada samarali qo'llanilishi mumkin, ammo bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bir qancha muammolarni hal qilish zarurati tug'iladi. Shunday ekan, O'zbekiston Respublikasi sud va tergov sohasida ham jinoyatlarni dastlabki tarzda tergov qilishdan tortib hukm qilishgacha bo'lgan

jarayondagi potensial maummolardan hisoblangan yurisdiksiya va javobgarlik masalalarini tahlil qilib, yechim sifatida takliflar berishga harakat qilamiz. Avvalo, mamlakatimiz sud huquq tizimida texnologiyalardan foydalanish darajasi u qadar yuqori darajaga ko'tarilmayotganligini yurtimizda bu sohani huquqiy jihatdan tartibga solish uchun yetarlicha qonunchilik tizimida asoslar yo'qligi bilan sharhlay olamiz. Ammo bu amaliyotni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston-2030" strategiyasi; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-sonli "Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni shular jumlasidandir. Biroq, bu hujjatlarda huquqiy tartibga solish masalasi batafsil yoritilmagan bo'lib, faqatgina yo'riqnomalar berib ketilgan. Yevropa Ittifoqi tomonidan 2024-yilda AI akti qabul qilingan, bu birinchi keng qamrovli AI regulyatsiyasi hisoblanadi. Bu hujjatda Yevropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlar texnologiyalarni (AI va uning algoritmlari asosida ishlovchi boshqa tizimlar) har bir sohada, jumladan jinoyat huquqida qo'llayotganida rioya qilishi va e'tiborga olishi kerak bo'lgan qoidalar va yo'riqnomalar belgilab qo'yilgan. Ahamiyatlisi shundaki, ushbu regulyatsiyaga binoan sud va tergov jarayonida texnologiyalar qo'llanilishi "**High-Risk**" toifasiga kiradi va bunday tizimlar uchun qat'iy talablar mavjud. Singapurda ham bu holatni tartibga solib turuvchi bir qancha qonunlar mavjud bo'lib, ular asosan bu borada yo'riqnoma sifatida foydalaniladi.¹²

Xulosa va takliflar.

Jinoyatlarni tergov qilish va sud jarayonida bevosita zamonaviy texnologiyalarni qo'llash insoniyatga juda ko'p afzalliklar bera oladi, ammo bu jarayondagi bir qancha kamchiliklarni hal qilish uchun yechimlar izlanishi va yanada chuqurroq tahlil va tadqiqotlar olib borilishi zarur. **Mening fikrimcha**, jinoyat huquqida,

¹² European Commission. AI Act enters into force. 1 Aug 2024.

ayniqsa sud va tergov sohasida texnologiyalardan foydalanish masalasiga chuqur yondashish zarur. Zero, bu jarayonda insonlarning keyingi hayotiga katta ta'sir qiladigan aybdor deb topish, hukm qilish kabi masalalar mavjud. Shunday ekan, **avvalo**, ulardan foydalanish bo'yicha aniq, batafsil, xalqaro talablarga javob beradigan va qat'iy yo'riqnomalar ishlab chiqilishi, bunda yuqorida keltirilgan davlatlar tajribasidan xulosalar qilib, andoza olinishi kerak. **So'ngra** yurisdiksiya masalasi, xatolar uchun kimlar javobgar bo'lishi kerakligi, ularga qanday jazo choralari qo'llanilishini belgilab beruvchi **maxsus qonun va kodeks** ishlab chiqilishi zarur deb hisoblayman. Ammo bu faqatgina qonunchilik jarayoni orqali hal qilinishi mumkin bo'lgan masala emas, balki soha mutaxassislari ham zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasi va etikasiga ega bo'lishlari zarur, ularni yetarlicha ko'nikmaga ega bo'lishlari uchun yillik o'quv mashg'ulotlari o'tkazilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. So'ngra aholi orasida **huquqiy targ'ibot** ishlarini olib borish, ularda bu raqamli amaliyotga ishonish hissini uyg'otish zarur. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar prognoz qilinishi kerak. Texnologiyalarning sud va tergov jarayoni bilan integratsiyasi uzoq muddat, moliyaviy ta'minot va yana bir qancha tashkiliy jarayonlarni talab qilsa ham, bu orqali ko'pgina istiqbolli imkoniyatlarga ega bo'lishimiz mumkin.

Foydalanilgan manbaalar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (<https://www.lex.uz/>)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.

4. Qodiraliyeva S.B. Sud-ekspertiza sohasida sun'iy intellektning rivojlanishi - 2022.
5. Forensic Information Database annual report 2023-2024. UK. Cambridge university press. 2021.
6. European Commission. AI Act enters into force. 1 Aug 2024.